

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATI”

MODULINING

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi:

ona tili va adabiyot

Tinglovchilar kontingenti:

Akademik litseyning ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchilari

Buxoro – 2024

Modulning ishchi dasturi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan va BuxDU Ilmiy kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

BuxDU “O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika” kafedrasida dotsenti,
f.f.f.d. (PhD) M.R.Hamroyeva

Taqrizchi:

BuxDU “O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika” kafedrasida professori,
f.f.n. A.R.Axmedov.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	21
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	38
V. GLOSSARIY	69
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	72

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta’limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o‘qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma’lumotlardan foydalanish; ona tili o‘qitishning o‘ziga xosligi va uni zamonaviylashtirishga amal qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari bo‘yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- ona tili va adabiyot ta'limidagi muammolar: ta'lim jarayoni bilan bog'liq muammolar, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarishini o'zlashtirish.

- mazkur modulni o'qitishdagi jahon mamlakatlarida qo'llanadigan tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“Ona tili darsliklari va ularda til o'rganish ko'nikmalarining o'qitilishi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslarini;
- badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlarni;
- nutq texnikasi orqali muloqotning ekspressiv va emotsional ta'sirini oshirish yo'llarini bilishi lozim.

Tinglovchi:

- badiiy asarlar orqali notiqlik san'ati ko'nikmalarini shakllantirish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- nutq texnikasi orqali muloqotning ekspressiv va emotsional ta'sirini oshirish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim

modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Ona tili darslarida nutq madaniyati va notiqlik san’ati ko’nikmalarini shakllantirish.	2	2	2		
2.	Badiiy asarlar orqali notiqlik san’ati ko’nikmalarini shakllantirish.	2	2	2		
3.	Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlar.	2	2		2	
4.	Nutq texnikasi orqali muloqotning ekspressiv va emotsional ta’sirini oshirish yo’llari.	2	2		2	
Жами:		8	8	4	4	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1-mavzu: Ona tili darslarida nutq madaniyati va notiqlik san'ati ko'nikmalarini shakllantirish. (2 soat ma'ruza)

DTS talablarining bajarilishida ona tili va adabiyot ta'limininig o'rni. Ona tili va adabiyot ta'limidagi muammolar: ta'lim jarayoni bilan bog'liq muammolar, bilim darajasini shakllantirish bo'yicha muammolar, nutqiy kompetensiyalarni egallash bilan bog'liq muammolar. Til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili,

zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari.

2-mavzu: Badiiy asarlar orqali notiqlik san'ati ko'nikmalarini shakllantirish.

(2 soat ma'ruza)

Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlar. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi badiiy asarlardan foydalanish. Badiiy asar tahlilidagi ijodiy yondashuv omillarining afazalliklari. Badiiy asarni pedagogik texnologiyalar bilan tahlil etish asosida o'quvchilarning tasavvurini o'stirish, ularning mushtarak yoki farqli jihatlari xususida muayyan xulosalar chiqarish layoqatini rivojlantirish, badiiy asarlar yordamida nutqini o'stirishga doir ijodiy yondashuvlar.

AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-mavzu. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlar. (2 soat amaliy)

Badiiy asarlarning tahlili o'tkaziladi. Nazariy va amaliy tahlil qilishda Milliy sertifikatga tushgan badiiy asarlar hamda darsliklardagi badiiy asarlar misol sifatida tanlanadi. Badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlar.

2-mavzu: Nutq texnikasi orqali muloqotning ekspressiv va emotsional ta'sirini oshirish yo'llari.(2 soat amaliy)

O'qituvchining ovozidagi xususiyatlarni aks ettira olishi, jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi); keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi); havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi); ixchamlik, harakatchanlik; chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish); moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi); qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi); suggetsivlik (ovozning xayajon

ifodalashi va bu orqali, qanday soʻz aytilayotganidan qatʼiy nazar, tinglovchining xulqiga taʼsir qilish xususiyati).

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

I. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: Oʻzbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. 3-jild.– T.: Oʻzbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: Oʻzbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi – T.: Oʻzbekiston, 2021. - 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2023
8. Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-sonli Qonuni.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy taʼlim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyunda "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

14. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
15. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg'ona: 2016.-108 b.
16. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
17. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
18. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
19. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
20. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O'z.R. FA TAI, 2000-47b.

IV. Internet saytlar

21. <http://edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
22. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
23. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
24. <http://ziyonet.uz> - Ta'lim portali Ziyonet
25. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM

METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga

o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikir, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




Белгилар:

- 1-таълим олувчилар
- 2-айлана стол

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:


- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

"Rolli o'yin" metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta‘lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta‘lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta‘lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta‘lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta‘lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta‘lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta‘lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta‘lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:


- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o’z fikrining to’g’riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo’lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo’yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU. ONA TILI DARSLARIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Reja:

1. Qadimgi Gretsiya va Rimda notiqlik maktablari.
2. Aristotel va Sitseronning notiqlik bo'yicha qarashlari (“Ritorika”, “Notiqlik haqida”).
3. Sharqda notiqlik san'ati.
4. Kaykovusning “Qobusnoma” asari.
5. A.Navoiyning Sharq notiqlik maktabiga qo'shgan hissasi.

Nutq madaniyati umuminsoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Tor ma'noda Nutq madaniyati - til me'yorlarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish konunlarini yaxshi bilmok, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq xolda foydalana olish va ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati atamasi rus tilida yozilgan adabiyotlarda asosan 2 xil:

1. Nutqning fazilatlari yig'indisi.
2. Namunaviy nutq sirlarini egallash haqidagi ta'limot ma'nolarida ishlatiladi.

Madaniy nutqning fazilatlari deganda, uning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ifodaviyligi, boyligi, sofligi kabilar tushuniladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot o'zining uzoq o'tmishiga ega. U ta'limot sifatida Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. U paytlarda har bir davlat arbobining notiq bo'lishi shart bo'lgan. Notiklik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi yaratiladi. Uning Sitseron, Demosfen, Kvintilian, Aristotel kabi nazariyotchilari yetishib chiqadi. Eramizning 335-yilida Aristotelning “Ritorika”si yaratildi. Unda notiq oldidagi eng muhim vazifalar belgilab berildi.

So'z notikligining katta nomoyandalaridan biri Sitseron “Notiq haqida”, “Notiq”, “Brut” asarlari bilan notiqlik san'ati nazariyasiga katta hissa qo'shdi.

Rim notiqlik maktabining yana bir buyuk vakili Mark Fabiy Kvintiliandir. U o'zining “Notiq bilimi haqida” kitobida bilimdonlikni notiqlikning birinchi sharti qilib

qo'yadi. U: “Notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o'rgana borish, nutq tinglovchiga tushunarli bo'lishi kerak” – , deydi.

U: “Sen shunday so'zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsun”,- degan edi.

Xullas, kadimgi Yunoniston va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi rivojlantiriladi. Bu nazariya keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Nutq san'ati barcha zamonlarda, har qanday jamiyatda alohida qadrlangan. Qadimgi Misrda, Yunonistonda, Rimda notiqlik, va'zxonlik musobaqalari o'tkazilgan. Keyinroq bu muhim sohani o'rgatadigan maktablar paydo bo'lgan. Antik Rim siyosiy notiq-lari Plutarx, Yuliy Sezar va Sitseronlarning siyosiy nutqlari og'izdan-og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan. “Notiqning vazifasi u yoki bu faktlarni keltirishgina emas, balki ular vositasida talabalarda kuchli his-tuyg'ular uyg'otish, barcha tinglovchilarni shunga safarbar etishdir”, — degan edi Sitseron.

Nutqiy chechanlik – notiqlik alohida qobiliyatdir. Chinakam notiq-lar notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o'z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar. Notiqlik qadimiy davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida insondagi maxsus noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi. Shu tufayli notiqlikni nutq madaniyatidan farqlash lozim, har qanday og'zaki nutq shakli nutqiy mahorat ma'nosidagi notiqlik bo'lavermaydi.

Sharqda, jumladan Movarounnahrda ilmiy ijodning taraqqiyoti bilan, shuningdek, va'zxonlik, “Qur'on”ni targ'ib qilish bilan birga so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar aytilgan.

Va'zxonlikning, balog'at (chechanlik, notiklik) san'atining rivojlanishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar mukammallashib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Abu Ya'qub Sakkokiy tilga, lug'atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, ular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagandir. “Qobusnoma” Qaykovus tomonidan 1082-83-yillarda yaratilgan bulib, 44 bobdan iborat. Uning 6-7- boblari so'z odobi haqidadir. Asar muallifining farzandiga qilgan nasihat-lari sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: "So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi." Kishi suxandon va notiq bo'lishi lozim... Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bulsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar...

XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham o'z asarlarida so'zni qadri, undan foydalanish, kam so'zlab ko'p ma'no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar yuzasidan ibratli fikr bildirganlar.

O'zbek adabiy tilining asoschisi A.Navoiy o'z ijodi bilan turkiy tilning boyliklarini nomoyon etdi.

A.Navoiyning “Muhokamatul lug'atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javoHir” asarlari o'zbek tilida Nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga katta xissa qo'shdi.

A.Navoiy “Mahbubul qulub”da shunday deydi:” Tilga iqtidorlik - hakimi xiradmand: so'zga ixtiyorsiz – layni najand. Tilki fasih va dilnazir bo'lg'ay, xubroq bo'lg'ay, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay”.

Tilga kuchi yetadigan kishi aql podishosidir: so'zga ahamiyat bermaydigan kishi la'natlangan, past kishidir.

Til go'zal dillarni olovlantiruvchi bo'lishi bilan birga (so'zlovchining) dilidagini aks etirsa, yanada yaxshiroq bo'ladi.

Ravshanki, bunda Navoiy til deganda nutqni nazarda tutgan.

O'zbek badiiy nutqi tarixida Z. M. Bobur alohida o'rin tutadi. Shoirning nazmi va “Boburnoma”si nutqning go'zal namunalaridir, “Boburnoma”ni XV asrning eng yaxshi prozaik asari deb tan olishlari bejiz emas, albatta. Bobur o'zi xammabop yozish bilan birga, boshqalarga ham shunday ish tutishni maslaxat beradi. Jumladan, o'z o'g'li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning o'zi bir necha bor o'qib ko'rishi, uning ravonligiga, so'zlarning kuzda tutilgan ma'noning to'g'ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan sung jo'natishga chaqiradi.

"Xatingni xud har tavr kilib o'kusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mavhum bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda koxilliging ham ushbu jihatindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin mug'lak buladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham senga tashvish ozrok bo'lur va ham o'qig'uvchiga”

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o'rganish, uning lugaviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so'zlashni egallash, go'zal, ta'sirchan Nutq tuza bilish, til boyliklarini maksadga muvofik xolda urinli ishlatish vazifalarini oldingi uringa kuyadilar.

Nutq madaniyati fanining maksad va vazifalari.

Nutq madaniyati asoslari fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi.

Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan. Pedagogika institutlarida chiroyli nutq tuzishning konuniyatlari, sirlari, til, til me'yorlari, nutq, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan baxs yuritadi.

Nutq madaniyatining tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til

me'yorlari va nutqning kommunikativ (aloka uchun kerakli fazilatlaridir)

Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. “Til madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til me'yorlari, asosiy vazifasi esa ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmog'i kerak.

Til me'yorlarining muhimligi haqida rus tilshunosi L.I. Skvortsov obrazli qilib shunday degan edi: “Ijtimoiy madaniy hayotda til me'yorlari bir mash'aldirki, nutq faoliyatining qirg'oqsiz okeanida til jamoasi unga qarab intiladi, tayanadi”.

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, ular o'rnida jamiyatning yangicha talablariga javob beradigan yangi normativ unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Har bir davr adabiy tilining o'z me'yorlari bo'ladi. Ba'zi bir hodisalar uzoq davrlar me'yor sifatida ko'llanilib kelishi mumkin. A.Navoiy ijod etgan XV asr o'zbek adabiy tilining o'z me'yorlari mavjud edi, ularga ko'ra tilning fonetikasi, grammatikasi va stilistikasidan foydalanishning o'z me'yori bor edi. U davr adabiy tilining o'z talaffuz me'yorlari ham bo'lgan. Bu adabiy me'yorlar jiddiy o'zgarishlarga uchramasdan badiiy adabiyot tilida XIX asr oxirlarigacha amal qilib keldi.

O'zbek demokratik adabiyoti vakillari, ilg'or yozuvchilar xalq hayotini, adolatsiz lekin kengrok tasvirlash jarayonida uz asarlarining tilini xalk tiliga yaqinlashtirishga harakat kildilar. Bu adabiy tilga yangi me'yoriy hodisalarning kirib kelishiga olib keldi. Bu borada, ayniqsa, Muqimiy, Furqat, keyinroq Xamza, A.Qodiriy, A.Avloniy, Mirmuhsin Mirmuhammedov, Fitrat, Cho'lpon, So'fizoda kabilarning xizmatlari kattadir.

Bizning davrimizda uzbek adabiy tili me'yorlari jiddiy yangilandi: so'z qo'llash, grammatika, talaffuz me'yorlari xalk jonli tili xususiyatlari asosida o'zgardi.

Nutq madaniyati fani tilning xamma sohalari buyicha adabiy til me'yorlarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy me'yor sifatida mustahkamlanishi uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlar yaratmaydi, ba'zi bir xodisalarni majburan me'yorga kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarni kashf etadi, yangi tavsiyalar beradi xolos.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Notiqlik qanday san'at?
2. Aristotel va Sitseronning notiqlik bo'yicha qarashlari qaysi asarlarida aks

etgan?

3. Sharq notiqlik san'ati namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Alisher Navoiyning notiqlik san'ati haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.
5. Ona tili darslarida notiqlik san'atining qanday ahamiyati bor?
6. Notiqlik qobiliyatini oshirish uchun qanday tavsiyalar bergan bo'lar edingiz?

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT. BADIYY ASARLAR ORQALI NOTIQLIK

SAN'ATI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Reja:

1. Adabiy til tushunchasi.
2. Adabiy til va adabiy me'yor
3. Nutq madaniyatini shakllantirishda mutolaaning o'rni.

Adabiy til – tilning yashash shakllaridan biridir. Bu ma'noda adabiy til xususiyatlari umumtil xossalarining juz'iy ko'rinishlaridan biridir. Demak, adabiy til umumtilning o'ziga xos tarmog'i, tipidir, shunga ko'ra adabiy til normasi umumnormaning bir tarmog'i, bir tipidir. Adabiy til o'z funktsiyasi, normasi, tarqalish doirasiga ko'ra tilning boshqa sotsial ko'rinishlaridan farq qiladi. O'zbek adabiy tili o'zbek tilining dialekt va shevalaridan, o'zbek oddiy so'zdashuv nutqi, professional nutq ko'rinishlaridan, jargonlardan farqlanadi. Adabiy tilga xos eng muhim xususiyat bu tilning umumxalq doirasida ishlatilishi uchun mo'ljallanganidir. Bu xususiyat har qanday adabiy til uchun xosdir. Adabiy tilning umumxalq doirasida qo'llanishi undan bir qator fazilatlarga ega bo'lishni talab etadi. Bular:

- adabiy til – umumxalq tili darajasiga ko'tarilishi uchun, o'z normalarini doimo takomillashtirib borishga intiladi;
- adabiy til – normativ til va u doimo normativlikka intiladi;
- adabiy til polivalentlidir .

Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng bo'lib, u jamiyat hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan deyarli barcha jarayonlarni, yo'nalishlarni, hodisalarni qamrab oladi.

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi.

Demak, nutq madaniyati nutq bilan, nutq faoliyati bilan bevosita bog'liq ekan, til nima, nutq nima degan savollarning kelib chiqishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq – bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining ob'ektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjud. Bu tushuncha muayyan lisoniy me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo'lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma'naviyatini belgilovchi (ko'rsatuvchi) etik va estetik hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarda ma'lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

- 1) madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi;
- 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;
- 3) nutq madaniyati muammolarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko'rinishlariga, qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim .

Shunday qilib:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi).
2. Nutq madaniyati (til madaniyati) – bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).
3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).
4. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).
5. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlik hamda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).
6. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir. (A.I. Yefimov).
7. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D.E.Rozental va boshqalar)
8. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir. (M.Agafonova) .

Xulosa shuki, nutq madaniyati tilni aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo'ladi. Aksincha bo'lsa-chi, unda nutq madaniyati ham past saviyada bo'lishi muqarrar.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov (mezon) ga asoslanishimiz tayin. Mana

shu o'lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yorlari deb yuritiladi.

Adabiy til – tilning yashash shakllaridan biridir. Bu ma'noda adabiy til xususiyatlari umumtil xossalarining juz'iy ko'rinishlaridan biridir. Demak, adabiy til umumtilning o'ziga xos tarmog'i, tipidir, shunga ko'ra adabiy til normasi umumnormaning bir tarmog'i, tipidir. Ushbu ma'noda tilshunos N.N. Semenyuk milliy adabiy til normasini umummilliy til normasiga nisbatan “til normasining juz'iy ko'rinishidan namoyon bo'lishidan biridir..” , – deb ko'rsatadi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yorlari. 3. Argolar, jargonlar me'yorlari. 4. Adabiy til me'yorlari (adabiy me'yor).

Adabiy me'yor. Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o'sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo'ladi, ya'ni aloqani yengil amalga oshirishga imkon beradi. Bu- tilning o'zi me'yordan iboratligini ko'rsatadi. Me'yor – tilning yashash shaklidir .

Adabiy me'yor uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun -qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy me'yor uzusdan olinganligi sababli hamma uchun tushunarli bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarini uyushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me'yor.
2. Talaffuz (orfoepik) me'yor.
3. Yozuv (grafika) me'yorlari.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasash me'yorlari.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktatsion me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yorlari va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar

ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me'yoriga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatda farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til me'yoridagi o'zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me'yorini doimiy rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me'yori sistemasidagi yangi holatlarni, o'zgarayotgan, o'zgargan holatlarni, shuningdek, “o'lgan”, istehmoldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til me'yori sistemasidagi qarama-qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari bo'yicha tekshirishi lozim .

Nutq madaniyati adabiy me'yorni ma'lum maqsad bilan, anig'i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o'rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me'yoriy sistemasini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya'ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki, shu tilda so'zlashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televideniyaning kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o'ynaydi. Adabiy til va uning me'yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bular – so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. So'zlash deyilganda, so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashi tushuniladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlashning monologik va dialogik ko'rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan

muloqatidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqea-hodisadan xabardor bo'ladi.

O'rta maktabda ta'lim olayotgan yoshlarni, ya'ni, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'lga yosh avlodni, ya'ni o'z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining nutqi o'ta muhimdir. Demak, o'qituvchilik kasbi insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak madaniyat bilan birga yuqori darajadagi nutqiy malakaga ham ega bo'lishini talab qiladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Nutq madaniyati nima?
2. Til madaniyati bilan nutq madaniyati qaysi jihatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi?
3. Adabiy me'yor nima? U nimaga asoslanadi?
4. Nutqiy malakaga qanday erishish mumkin?
5. Badiiy asar mutolaasida nimalarga e'tibor berish kerak?
6. Notqlik qobiliyatini oshirishda badiiy asar mutolaasining qanday ahamiyati bor?

2- AMALIY MASHG'ULOT. NUTQ TEXNIKASI ORQALI MULOQOTNING EKSPRESSIV VA EMOTSIONAL TA'SIRINI OSHIRISH YO'LLARI.

Reja:

1. Nutq madaniyati muammolarining dars mazmuni va samaradorligi bilan bog'liqligi.
2. Nutq texnikasidan dars jarayonida foydalanish.
3. Nutqning ta'sirchanligini oshirish yo'llari.

Mavjud adabiyotlarda notiq, notqlik san'ati, voizlik kabi tushuncha-larga duch kelamiz. Xalq orasida esa "so'z ustasi", "so'zga chechan", "so'zamol", "gapni do'ndiradigan", "gapni qiyvoradi" singari iboralar bor. Ularning barchasi inson nutqining kamolot darajasini, umumiy, oddiy nutqdan farqlaydigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Hamma ham agar u nuqsonli (soqov, tili chuchuk) tug'ilmagan bo'lsa, risoladagidek gapiradi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o'ta chiroyli gapiruvchi bo'la olmaydi. Bu kabi nutqiy chechanlik notqlik hisoblanadi. U alohida qobiliyat, notqlik san'atidir.

Qadimda Zardo'sht, To'nyuquq, Alp er Tunga, Aprinchur Tigin, Forobiy, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Navoiy, Bobur kabi yirik notiqalar bo'lgan. Turkiy podshohlar saroyida maxsus notqlik maktablari bo'lib, u yerda bo'lajak davlat rahbarlari tayyorlangan. Mirzo Ulug'bek, Amir Umarxon kabilar ana shunday

maktablarda tahsil olishgan.

Hozirgi kunda ham san'at, madaniyat va filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida notiqlik fanidan saboqlar beriladi. Ayniqsa, aktyorlar va jurnalistlar tayyorlashda notiqlikka jiddiy e'tibor beriladi.

Bundan tashqari Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi tomonidan notiqlar ko'rik tanlovlari tashkillanmoqda. Xalq orasida Afzal Rafiqov, To'lqin Tojiyev, Tursunoy Sodiqova, Quddus A'zamov, Qobilbek Karimbekov kabi o'nlab notiqlar nomi mashhurdir.

Qadimgi Gretsiya va Rimda ham shunday maxsus maktablar bo'lgan. Uni muvaffaqiyatli tamomlagan shaxsgina davlat rahbarligiga loyiq ko'rilgan. Masalan, ezop, Arastu, Siseron, Sezar kabilar kuchli notiqlar bo'lgan.

Nutqiy mahorat (nutqiy san'at) bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanadi. Chinakam san'at, alohida qobiliyat ma'nosidagi notiqlik barcha kishilar uchun ham xos bo'lmagan. Shuning bilan birga har qanday chiroyli nutq ham "notiqlik" namunasi (san'at sifatida) va uning egasi chin ma'noda "notiq" deb tan olinmaydi. Notiqlik insondagi noyob qobiliyat, u san'at tarzida talqin qilinadi. Shu tufayli notiqlikni (ular orasidagi bog'liqlikni inkor etmagan holda) nutq madaniyatidan farqlash lozim.

Ma'lumki, notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroyli, jozibali bo'lishi shart. Chiroylikka erishish uchun ham nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jimjimadorligiga e'tibor beriladi. Nutq madaniyati esa tilning turli uslub va janrlariga xos bo'lgan variantlarini egallash, til normalariga amal qilish, shuningdek, tilning ijtimoiy anhanalaridan kelib chiquvchi turli tip va janrlarini o'zlashtirishga e'tibor qaratadi. Ular orasida quyidacha farq va muhim belgilar bor:

1. Nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, adabiy til va uning normalari bilan bog'liqdir. Notiqlik uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til normalariga amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevalarda ham haqiqiy notiqlik san'atini nomoyon qiluvchilar topiladi.

2. Notiqlik nutqning og'zaki shaklidir. Nutq madaniyati esa ham og'zaki, ham yozma shakllarini o'z ichiga oladi.

3. Nutq madaniyatining maqsadi barchani, butun xalqning tilini madaniylashtirishni nazarda tutadi. Notiqlik san'atida esa tinglovchilarga ma'lum bir g'oya va maqsadni yetkazishni nazarda tutadi.

4. Notiqlik san'ati ma'lum kishilargagina xos hodisa, nutq madaniyati esa barcha erishi mumkin bo'lgan ilmdir. Har bir kishi ham ona tilining imkoniyatlarini o'rganib nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol bo'lishi mumkin ammo har kim ham san'atkor darajasidagi notiq bo'lolmaydi.

5. Nutq madaniyati ko'pchilik, keng ommani ko'zda tutib ko'ruvchi sohadir. Notqlik avvalo, shaxsiy qobiliyatdir.

Notqlik va nutq madaniyati o'rtasidagi farqlarning asosiylari shular, ammo bundan tashqari ham farqlari bo'lishi mumkin. Notiq o'z nutqida asosiy e'tiborni birinchi galda g'oyani, fikrni tinglovchi onggiga singdirishga harakat qiladi. Buning uchun notiq avvalo o'zi gapirayotgan mavzuni puxta bilishi, har gapi yurakdan aytishi kerak. Har bir fikrni asoslashishi, isbotlashi, izohlashi lozim. Keltirilgan faktlarga tinglovchi ishonishi lozim. Nutq madaniyatida esa bu talablar yetakchi emas.

Notqlik ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy, iqtisodiy ishlar targ'iboti maqsadida kishilar o'rtasida maxsus ma'ruzalar o'tkazish, muloqotlar uyushtirish, har xil suhbatlar tashkillash kabilar orqali amalga oshiriladi. Ana shu chiqishlar, ma'ruzalar va suhbatlarni ommaga qay darajada ta'sir etishi ular diqqatini qo'yilayotgan masalarga tortish notiqlardan katta mahorat talab qiladi. Chunki, ommani ishontirish, ularga tushunarli, yorqin, ta'sirchan mantiqli va aniq nutq irod qilish kerak bo'ladi. Ana shularni tahminlagan notiq esa o'z oldiga qo'ygan maqsadga to'liq erishadi. Taniqli notiqlar o'z nutqlarining namunali bo'lishini ta'minlashda quyidagi asosiy holatlarga e'tibor berishgan:

1. O'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish, o'zlashtirib olish, undagi masalalarga o'z munosabatini aniq belgilab olish.

2. O'z dunyo qarashiga ega bo'lishi, so'z va ish birligiga, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga mas'uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to'liq ochib berishga, yoritishga erishish.

4. Ma'ruzalar, ommaviy chiqishlar vaqtida omma bilan yaqin aloqa va muloqotda bo'lishni tahminlash. Bu orqali esa tinglovchilar kayfiyatini his etib turishi va ularni o'z fikrlariga ishontira olish.

5. Har qanday murakkab ma'ruzalarni imkon darajasida soddalashtirilib, ommaga tushunarli qilib yetkazish kerak. Barcha turdagi nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish, jumladan so'zni nimadan boshlab nima bilan tugashigacha jiddiy o'ylab olish lozim. Masalalarni o'rta tashlash ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o'zaro bog'lanishini tahminlash, ma'lum rejalar yoki reja-tezislar tuzib olib o'zi uchun alohida va keng to'xtalishi zarur bo'lgan o'rinlarini belgilab olish kabilar.

Nutqni namunalai bo'lishishini ta'minlovchi asosiy omillar yuqorida sanab o'tilganlar bilan cheklanmaydi. Shu omillarni yuzaga keltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri shubhasiz mildir. Tilni yaxshi bilish, undan o'rinli va to'g'ri foydalanish malakasiga ega bo'lish, yani nutq madaniyatni egallash notiqning ishini osonlashtiradi. Mavzuni tinglovchi kutmagan joyda, sezmaganda anglab boradiki, bu bilan notiq tinglovchining ongi va qalbida yuz bera yotgan o'zgarishlarni sezib

boradi.

Notiq o'z nutqini dastlab shaxsiy fikr-mulohazasini bayon qilish orqali boshlaydi. So'ngra o'z maqsadini, nutqidagi masalanining mohiyatini tushuntiradi, lozim joylarini izohlaydi. Muhim dalil va faktlarni umumxalq tomonidan qabul qilingan aksiomalar yordamida asoslaydi. Mashhur kishilar asarlaridan qaydlar keltiradi. Oxir oqibat o'z nutqidagi bosh g'oyani isbotlab beradi.

Nutq madaniyati olam-olam mazmunni go'zal ifodalab berishiga ham asoslanadi. Ma'lumki, notiq har xil bo'ladi. Barchasi o'z uslubi, o'ziga xos bilimiga, o'zini tuta bilish, omma bilan til topa olish mahoratlariga ega bo'ladi. Aristotel ta'kidlaganidek, nutq zaminidagi fikrlar notiq shaxsi orqali gavdalanadi. Demak, notiq timsolida ijtimoiy fikrlar, ilmiy xulosalar yig'indisi namoyon bo'ladi. Bu esa notiqning jamiyatning butun yoki ma'lum qatlami nomidan gapirayotganini bildiradi. Shuning uchun uning zimmasida jamiyat yoki uning ma'lum qismining fikri, mulohazasi uchun mas'uliyat turadi.

Har qanday notiq nutqining madaniyatli bo'lishini ta'minlashga harakat qilar ekan, avvalo o'z ona tilining bebaho ne'matlaridan foydalana bilishi shart. So'zning qadriga yetish, nutqni go'zal, latofatli, ma'nodor bo'lishiga erishish, so'zlaganda samimiy, ochiq chehra bilan so'zlash zarur. Chunki hamma vaqt ham chiroyli gap tuzish va baland parvoz jumlar qalashtirib tashlash bilan madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi. Qadimdan taniqli notiq har ko'p qo'llanadigan so'zlardan, ortiqcha metaforalar, jim-jimadorlikdan chetlanishgan. Lekin kimdir butun nutqini dabdabali asosda tuzsa, bunday nutq topishmoqqa aylanish tinglovchini toliqtirishi, unda so'zga va notiqqa nisbatan salbiy fikr tug'ilishiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor aytganidek, so'z atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak.

Bugungi kundagi notqlikni o'z mohiyatidan kelib chiqib quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy ma'ruzalar. Ijtimoiy-siyosiy chiqishlarga, odatda, davlat va jamoat arboblarning rasmiy nutqlari, ma'ruzalari kiradi. Ularda davlat va jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan masala to'liq yoki qisman yoritiladi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi ma'ruzalar insonning ichki va tashqi dunyosi bilan bog'lik ma'lum bir muammoni hal etish, omma ongidagi tushunmovchilik va chalkashliklarni tugatish, ularni to'g'ri yo'lga solish, omma uchun noma'lum bo'lgan holatlarga aniqlik kiritish, ularni xabardor etish, ayrim narsa-hodisalar mohiyatini to'la ochib berish kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, bu turdagi ma'ruzalar odob-axloq, ilm olish, yaxshilikka intilish kabi mavzularni qamrab oladi.

3. Diniy mavzudagi chiqishlar. Bunday ma'ruzalarda dinlarning ma'rifiy tomoniga e'tibor beriladi. Diniy adabiyotlar yordamida kishilar hayotidagi u yoki bu muammoni yaxshilik bilan hal etiladi. Masalan, juma ma'ruzalari, Fozil qori Sobirov

chiqishlari.

4. Akademik nutq. (Akademizm) Bunday nutq tor doiradagi kishilar, biror sohaning yetuk olimlari va mutaxassisleri oldida qilinadi. Masalan, Fanlar akademiyasida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, aniq fanlar kabi sohalarida ana shunday ma'ruzalar qilinadi. Ularda gaplar bir muncha murakkab, atamalarga boy bo'ladi.

5. Huquqiy, iqtisodiy nutq. Bu turkumga kishilarning huquqqa oid nutqlari, xususan suddagi chiqishlar, iqtisodiyotga oid ma'ruzalari kiradi.

6. Professional notiqlarning chiqishlari. Professional nutqqa respublika miqyosdagi notiqlar turkumining nutqlarini kiritish mumkin. Ular biror kasb yoki sohaga oid mukammal ma'ruza qila olishadi.

Notiq o'z nutqining grammatik to'g'ri bo'lishi, shu davr adabiy til normasiga mos kelishi, mazmunli hamda sodda, aniq va mantiqiy bo'lishga jiddiy e'tibor berishi zarur. Bunda tilning tasviriy vositalari metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror, abadiy ko'chirmalar va boshqalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, notiqlik alohida san'at ko'rinishidagi nutq bo'lib, notiq o'z nutqi uchun zarur bo'lgan eng muhim belgilarga albatta e'tibor berish kerak. Og'zaki yoki yozma, publitsistik yoki badiiy, ijtimoiy-siyosiy yoxud boshqa nutqlarning eng muhim belgilari grammatik jihatidan to'g'rilik, adabiy til normalariga mos kelish, sodda, ixchamlik, mantiqlik kabilardir. Bular esa asoslash, isbotlash, tushuntirish orqali namoyon bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinadi. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilarni ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'liqligicha tinglovchilarga to'liq yetkazishga harakat qilish vazifa qilib belgilanadi. Xo'sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? B.N.Golovin aytganidek, ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tiborini va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ifodalanayotgan fikrga ishonтира olish notiqlar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarni nutq rejasi bilan tanishtirish lozim. Vaqtini hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib,

shunga rioya qilinsa, iloji bo'lsa, nutq sal oldinroq tugatilsa, ayni muddao bo'ladi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhimdir. Chunki shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan voz kechiladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub'ektiv fikr, mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor o'z hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali o'quvchilar diqqatini darhol egallaydi. “Osmon yiroq – yer qattiq” (“Bemor”), “Otning o'limi – itning bayrami” (“O'g'ri”) va b.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalari haqida ma'lumot bering.
2. Nutq texnikasi nima?
3. Yozma nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. Nutqning ta'sirchanligi deb nimaga aytiladi?
5. Nutq madaniyatini egallash yo'llari.
6. Ovozni ishlatish, akustik aspekt masalalari.

V. GLOSSARIY

Avtorizm – muallif so'zi. Badiiy adabiyotda shoir yo yozuvchi tomonidan hosil qilingan so'z.

Adabiy norma – til birliklaridan maqsadga muvofiq'ini tanlash.

Varvarizm – noo'rin qo'llangan chet so'z.

Dialektizm – shevaga oid birlik.

Jargon – ijtimoiy sheva, ma'lum ijtimoiy guruh nutqiga xos birliklar.

Kantselyarizm – turg'un birliklar, rasmiy uslubga xos bo'lgan nutqiy shtamplar.

Logograf – qadimda nutq matnini tuzib beruvchi shaxs.

Madaniy nutq – adabiy normalarga rioya qilib tuzilgan nutq.

Nutq – so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan hosil qilingan matnning tashqi

formal ko'rinishi.

Nutq madaniyati – adabiy til normalariga rioya qilgan holda to'g'ri, chiroyli va o'rinli so'zlash; tildan maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikma va malakalari jami.

Nutqning aniqligi – so'zning tildagi ma'nosi va o'zi ifodalagan narsaga qat'iy sos kelishi bilan o'lchanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning ifodaliligi – ta'sirchanlik deb ham aytiladi, nutqning tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qila olishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning mantiqiyligi – fikr rivojining voqealar rivojiga qat'iy mos va muvofiq kelishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning tozaligi – nutqning adabiy tilning lug'aviy (leksik) normalariga yot unsurlardan xoli ekani bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning to'g'riligi – nutqning adabiy tilning ma'lum vaqtda qabul qilingan normalariga qat'iy muvofiqligi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning o'rinliliigi – nutqning kommunikativ sifati. So'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish ko'nikmasi bilan belgilanadi.

Parazit so'zlar – nutqda vazifa bajarmaydigan so'zlar.

Sinegor – qadimda ma'lum haq evaziga sudda tomonlarning manfaatini himoya qilib nutq so'zlovchi shaxs.

Uzus – til imkoniyatlarining iste'molda bo'lgan qismi.

Naxv – (arabcha) sintaksis grammatika.

Nazm – (arabcha) she'riy asar: she'riyat janri, she'r o'lchovi

Nasr – (arabcha) proza, prozaik asar , proza janri.

Aruz – she'r tuzilishida qisqa va cho'ziq hijo (bo'g'in)larning ma'lum tartibda guruhlanib, takrorlanib kelishiga asoslangan vazn sistemasi. Aruz vazni.

Mantiq – (arabcha suz) tafakkur shakli va konunlari haqidagi fan; logika.

Morfema – (grekcha) linvistikaga oid termin bulib, so'zning eng kichik ma'no anglatuvchi, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan qismi (yoki bo'lagi) (o'zak morfema, affiksial morfema).

Jargon – (frantsuzcha) Biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos va o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama til.

Uzus – Biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan kismi uzus deyiladi. Uzus bir tilni boshkasidan ajratib turadigan shartlarni ham tilning ichki normalarini ham o'z ichiga oladi.

Asno – 1) biror ish-harakat, voqea-hodisa bo'lib turgan payt, fursat, chog';

2) qisqa muddatli ikki voqea-hodisa oraligi.

Andoza- kiyim bosh, poyafzal yoki biror boshka narsa bichish tayyorlash uchun ishlatiladigan kalin qog'oz.

Anduh – ruhiy azob, hafagarchilik, g'am-g'ussa, qayg'u.

Dodxoh – Buxoro xonligida adolat istovchilardan amir nomiga ariza qabul

qiluvchi lavozimli kishi.

Voiz – diniy mazmunda va'z kiluvchi, va'z aytuvchi, va'zxon.

VI. TESTLAR

1-variant

1. “Nutq madaniyati” fanining tekshirish obyekti?

- A. nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ aloqa uchun kerakli fazilatlarini tekshiradi
- B. nutqning til qurilishi, uslublari, nutqiy asar ko'rinishlarini o'rganadi
- C. adabiy me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi
- D. o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, rivojlanishini tekshiradi

2. “Nutq madaniyati”ning asosiy vazifasi?

- A. adabiy til me'yorlari, uning tarixiyligi, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, yangi me'yorlarning paydo bo'lishini kuzatadi
- B. nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlarini kuzatadi

- C. adabiy til me'yoridagi ikkilanishlarni bartaraf etadi
- D. sheva va adabiy til me'yorlarini o'zaro qiyoslaydi

3. "Nutq madaniyati"ning asosi nima?

- A. o'zbek adabiy tili
- B. adabiy tilga asos bo'lgan shevalar
- C. allomalarning durdona fikrlari
- D. xalq og'zaki ijodi, dostonlar

4. Nutq madaniyati nazariyasi qayerda yaratildi?

- A. Gretsiya va Rimda
- B. Yunonistonda
- C. Hindistonda
- D. Rimda

5. Nutqqa berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- A. tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka aylangan fikr
- B. nutq a'zolari faoliyatidan paydo bo'ladigan har qanday tovush
- C. nutq faoliyatining mahsulotidan, ma'lum shaklga kirishidan iborat
- D. nutq so'z shakllari, erkin birikmalar, so'z tartibi va ga'lardan tashkil etadi

6. "Til madaniyati" deganda nima tushuniladi?

- A. til madaniyati, til vositalarining boyligi va rang- barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi
- B. tilning so'z boyligi, sintaksisining taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang- barangligi tushuniladi
- C. rasmiy tilda o'z o'rnida, idora va majlislarda so'zlash
- D. adabiy va 'ublitsistik tilda yozish va so'zlash

7. Nutq madaniyati nima?

- A. shaxsning til imkoniyatlaridan sharoitga mos holda mohirona foydalana olishi
- B. shaxsning til imkoniyatlarini qanchalik o'zlashtirganligi
- C. aloqaviy fazilatlar yig'indisi va tizimidir
- D. shaxs kamoloti, adabiy va badiiy til materiallarini puxta o'zlashtirganligi

8. Insonning nutqiy faoliyati omili necha ko'rinishdan iborat?

- A. 2 ko'rinishdan
- B. 3 ko'rinishdan
- C. 5 ko'rinishdan
- D. 7 ko'rinishdan

9. Nomantiqiy birikmani toping.

- A. saboq darsi
- B. kech kuz
- C. erta bahor
- D. qishloq maktabi

10. "Nutq odobi"ga noto'g'ri izoh berilgan javobni toping?

- A. har kuni barvaqt turish, toza va ozoda yurish-turish
- B. tilni, adabiy til me'yorlarini bilish

- C. aytilishi zarur bo'lgan xabarni tinglovchini hurmat qilgan holda yetkazish
- D. muloyim, yokimli, odobli so'zlash

11. Nutqiy muomala komponentlariga kirmaydigan sifatni toping.

- A. boshni baland tutish
- B. chiroyli tabassum
- C. xushmuomalalik
- D. salomlashish

12. O'qituvchining nutqi qanday bo'lmasligi kerak?

- A. sheva, jargon va argolarda gapirish
- B. adabiy tilning go'zal va ta'sirchanlagidan foydalanish
- C. nutqi hamma vakt o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilish
- D. mantiqiy va ifodali bo'lishi

13. Adabiy me'yorning qanday ko'rinishlari mavjud?

- A. og'zaki va yozma
- B. adabiy va dialektal
- C. til va nutqiy
- D. nutqiy va yozma

14. Insonning nutq faoliyati qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?

- A. so'zlash, mutolaa qilish, eshitish
- B. mutolaa qilish va eshitish
- C. so'zlash va eshitish
- D. anglash, mutolaa qilish va eshitish

15. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, qanday me'yorlarga qat'iy amal qilish talab qilinadi?

- A. urg'u va grammatik me'yor
- B. imloviy va grammatik
- C. urg'u va imloviy
- D. imloviy va uslubiy

16. Sinonim so'zlar qatorini to'g'ri belgilang.

- A. Suluv, go'zal, xushro'y, dilbar
- B. Amir-amr, asr-asir, davo-da'vo
- C. Osh, tush, tut
- D. Ko'z, bosh, kalit

17. Ilm-fanga oid so'zlar asosan qaysi nutq uslubida qo'llanadi?

- A. Ilmiy uslubda
- B. Rasmiy uslubda
- C. Publitsistikada
- D. Badiiy uslubda

18. Namunaviy nutq avvalo, nutq bo'lishi kerak. Gapni kerakli jumla bilan to'ldiring.

- A. to'g'ri tuzilgan
- B. ma'noli
- C. tinglovchi shevasidagi

D. bir kishining turli mavzuda so'zlagan

19. Nutq to'g'riligi nimalarga asoslanadi?

- A. Adabiy til me'yorlariga to'la amal qilishga asoslanadi.
- B. Tinglovchi yashaydigan hudud tiliga asoslanadi
- C. Turli kishilarning bir mavzu doirasidagi suhbatiga asoslanadi
- D. Til va nutqning muvofiqligiga asoslanadi

20. Nutqning kommunikativ sifatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik
- B. to'g'rilik, mantiqiylik, lug'aviy birliklardan to'g'ri foydalanish,
- C. mantiqiylik, punktuatsion bilimga egalik, ifodalilik, boylik, soflik
- D. notiqlik san'atini egallash

21. O'qituvchining dars o'tishdagi asosiy quroli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. uning tili, nutqi
- B. darsliklari
- C. dars ishlanmasi
- D. diplomi

22. To'g'ri nutq nima?

- A. Hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutq.
- B. Hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilmagan nutq.
- C. Tinglovchi yashaydigan hududga moslashtirilgan nutq.
- D. Varvarizmlar, dealektizmlar bilan boyitilgan nutq.

23. Til birligining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab beruvchi me'yor qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Adabiy til me'yori
- B. Nutqiy me'yor
- C. Til me'yori
- D. Mantiqiy me'yor

24. Berilgan maqollarning qaysi birida insonning nutq tuzishga e'tiborli bo'lishi da'vat etilgan?

- A. "O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir", "Qopib emas, topib gapir"
- B. "So'z qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas", "Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni"
- C. "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur", "Yetti o'lchab, bir kes"
- D. "Qopib emas, topib gapir", "Do'st achitib gapirar, Dushman kuldirib"

25. Yozma nutq qanday qonun-qoidalar asosida shakllantiriladi?

- A. Imloviy, punktuatsion, uslubiy
- B. Fonetik, imloviy, uslubiy
- C. Leksik, grammatik, orfografik
- D. Imloviy, punktuatsion, sintaktik

2- variant

1. Og'zaki nutqning xususiyatlariga nimalar kirmaydi?

- A. tahrir imkoniyatidan mahrum
- B. nutq tezkorlik bilan amalga oshadi
- C. so'z birikmalari va ga'larning modellari tezkorlik bilan tanlanadi
- D. so'zlovchining faol nutqiy harakati, ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar fikrining tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi

2. Yozma nutq og'zaki nutqdan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?

- A. tahrir qilish imkoniyati mavjud
- B. muallif bermalol fikrlash imkoniyatiga ega
- C. fikr uchun eng mos imkoniyatlar tanlanadi
- D. fikr tahsiran, jozibali tarzda bayon etiladi

3. Monologga berilgan to'g'ri ta'rifni toping?

- A. so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqidir
- B. sintaktik jihatdan murakkab tuzilgan nutq
- C. ikki kishining samimiy suhbat
- D. ikki va undan ortiq kishilarning suhbat

4. Dialog qanday tashkil topadi?

- A. ikki kishi suhbatidan hosil bo'ladi
- B. so'roq, buyruq va darak gaplardan tashkil topadi
- C. sodda gaplardan tashkil topadi
- D. qo'shma gaplardan tashkil topadi

5. Polilog qanday tuziladi?

- A. ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuziladi
- B. ikki kishining nutqidan tuziladi
- C. bir kishining nutqidan tuzilgan suhbat polilogdir
- D. huddi dialog kabi tuziladi

6. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?

- A. aloqaning maqsadga muvofiq amalga oshuvi yo'lida so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalana olishi tufayli nutqning shakllangan ko'rinishidir
- B. til boyliklarini tanlab ishlatishga kura nutq ko'rinishlarining xilma-xilligiga aytiladi
- C. o'ziga xos sistema bo'lib, bir-biridan farq qiladi
- D. so'zlarni turkumlarga ajratib o'rganish va qo'llash

7. Nutq uslublari nechaga bo'linadi?

- A. 5 taga
- B. 6 taga
- C. 7 taga
- D. 4 taga

8. So'zlashuv uslubiga nima xos bo'lmaydi?

- A. fikrni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodali, savodli bayon qilish
- B. oddiylik, soddalik, betakkalluflik
- C. o'z leksikasi, fonetikasi, morfologisi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini aks ettirish
- D. topiqsiz, bir tarkibli, so'z-gap shakllaridan foydalanish so'zlashuv uslubiga xos bo'ladi

9. Quyidagi bayt muallifini va “sharir” so’zining lug’aviy ma’nosini toping: Yaxshi kishilar birla tutar bo’l suhbat,

To bergay amon sharirdin ul suhbat.

- A. Navoiy, yomonlik
- B. Jomiy, yaxshilik
- C. Lutfiy, ezgulik
- D. Bobur, yovuzlik

10. “Umumiy me’yor”ga berilgan tog’ri to’g’ri javobni toping.

- A. til jamoasi afzal deb hisoblagan ko’nikmalar yig’indisi
- B. me’yor qardosh tillarga nisbatan belgilanadi
- C. o’zbeklar nutqini kardosh tillardan ajratib turuvchi me’yorlar
- D. tarixan shakllangan ma’lum ko’nikmalar yig’indisi

11. Adabiy me’yor ...

- A. hamma birdek foydalanadigan til imkoniyatlari
- B. ma’lum bir til jamoasida mustahkam qo’llanib kelayotgan lisoniy hodisalar, imlo qoidalari yig’indisidir
- C. bir hududda yashovchi aholi uchun beistisno tushunarli bo’lgan qoidalar top’lami
- D. tilning yashash shakli

12. “Nutq madaniyati” qanday soha?

- A. lingvistik soha
- B. biologik soha
- C. tarixiy soha
- D. muhim siyosiy soha

13. Yozma nutqni to’g’ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta’minlashda zaruriy vosita qaysi javobda berilgan?

- A. Tinish belgilari
- B. Unli tovushlar
- C. So’z birikmalari
- D. Gap

14. Savodxonlikni ta’minlashning asosi hisoblanuvchi imlo qoidalari qaysi lug’atlarda o’z aksini topadi?

- A. Imlo lug’atlarida
- B. Izohli lug’atlarda
- C. Ikki tilli lug’atlarda
- D. Frazologik lug’atlarda

15. Uslublarning qaysi birida til birliklaridan kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida amal qilinadi?

- A. So’zlashuv uslubi
- B. Ilmiy uslub
- C. Badiiy uslub
- D. Rasmiy uslub

16. Matbuot, radio, televideniye xos bo’lgan til uslubini belgilang.

- A. Publitsistik uslub

- B. So'zlashuv uslubi
- C. Ilmiy uslub
- D. Badiiy uslub

17. Shevaga oid so'zlar qatnashgan qatorni belgilang.

- A. Narvon, paqir
- B. Ko'kat, archa, chinor
- C. Zoti oliylari, volidayi muhtarama
- D. Oshqovoq, dumbul

18. Antonimlar berilgan qatorni toping.

- A. Baland-past, tun-kun
- B. Chiroyli, suluv
- C. Shoh-shox, she'r-she
- D. Yam-yashil, kom-ko'k

19. Omonimlar berilgan qatorni toping.

- A. Son, olma
- B. Baland-past, tun-kun
- C. Chiroyli, suluv
- D. Shoh-shox, she'r-she

20. Nutqda o'rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so'zlar qanday nomlanadi?

- A. Varvarizmlar
- B. Shevalar
- C. Vulgarizmlar
- D. Jargonlar

21. Jumla *Bor-may-man!* tarzida bo'g'inlab aytilganda qanday ma'no ifoda etiladi?

- A. Qat'iylik, g'azab
- B. Araz, g'azab
- C. Nafrat, zarda
- D. Quvonch, shodlik

22. Nutq madaniyati so'zlarni konkret nutq uchun tanlashda qaysi yo'nalishning ma'lumotlariga tayanadi?

- A. Morfologiya
- B. Sintaksis
- C. Fonetika
- D. Leksikologiya

23. So'zlar va ularning ma'no tavsifini o'zida jamlagan, kerakli so'zni tanlash, ma'nosini to'g'ri tasavvur etish, o'rnini adashtirmaslik, demakki, madaniy nutq tuzishda eng yaxshi va yaqin yordamchi berilgan javobni belgilang.

- A. Lug'atlar
- B. Darslik

- C. Qo'llanmalar
- D. Badiiy asarlar

24. O'rganish obyektining yaqinligi jihatidan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan bo'limlar qaysi?

- A. Nutq madaniyati va leksikologiya
- B. Uslubiyat va fonetika
- C. Nutq madaniyati va uslubiyat
- D. Leksikologiya va morfologiya

25. Tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg'u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko'plab masalalarni o'rganadigan bo'lim qaysi?

- A. Orfografiya
- B. Orfoepiya
- C. Fonetika
- D. Grafika

3-variant

1. Og'ushimda zangori sezgi, Kiprigimda suyuq hayajon. Ko'zlarimda yumaloq sevgi, Salomatman men ham, onajon! (Rauf 'arfi) Ajratib ko'rsatilgan birikmalar qanday nomlanadi?

- A. g'ayriodatiy birikmalar
- B. odatiy birikmalar
- C. ilmiy birikmalar
- D. ijtimoiy birikmalar

2. Ilk tong nuri ki'rigingga qo'nar, Ko'kdan yuvib ketar qora uyquni. (Asqad Muxtor) Ajratib ko'rsatilgan birikma qanday so'z o'rnida qo'llanilganligini aniqlang.

- A. tun
- B. Oqshom

- C. Tong
- D. Choshgoh

3. “Ifodali nutq” deb qanday nutqqa aytiladi?

- A. o‘z tuzilish xususiyatlari, fazilati, xossalari bilan tinglovchining fikr va tuygularini, diqqatini yorkinlashtirgan, aytilganlarga kizikish uygotgan nutq
- B. tashbexlarga, ifoda vositalarga boy nutq
- C. sodda, tahsirchan, hammabo‘ nutq
- D. tinglovchida kizikish uygotgan nutq

4. Mantiqiylikka berilgan to‘g‘ri ta‘rifni toping.

- A. nutqda bayon etilgan fikrning ismlari va alohida fikrlarining o‘zaro mos kelishi
- B. so‘zlar bilan predmetlik ma‘nosining mosligi
- C. har bir so‘z o‘ziga biriktirilgan ma‘noni ifodalashi
- D. fikrning tartibiga ahamiyat berish

5. Ushbu jumladan mantiqiylik buzilgan o‘rinni aniqlang: *“Ko‘pgina turli masalalarni bevosita dars vaqtida hal qilishga to‘g‘ri kelishi boshlang‘ich ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.”*

- A. “turli” so‘zi ortiqcha
- B. “ko‘pgina” so‘zi ortiqcha
- C. “bevosita” so‘zi noto‘g‘ri qo‘llangan
- D. “to‘g‘ri kelishi” noto‘g‘ri qo‘llangan

6. Tilning tasviriy vositalariga nimalar kiradi?

- A. o‘xshatish, metafora, metonimiya
- B. so‘zlar, nutq uslublari
- C. lug‘aviy-ma‘naviy vositalar, troplar
- D. troplar, tasviriy shakllar

7. Tilga to‘g‘ri ta‘rif berilmagan qatorni toping.

- A. til vositalari yordamida fikrning namoyon bo‘lishi
- B. madaniy tarixiy an‘analarni avloddan avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi
- C. jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun xizmat qiladi
- D. ma‘lum kishilar jamoasi ahzolarining mulokoti uchun muhim va asosiy vosita xisoblangan o‘ziga xos belgilar sistemasi

8. “Bola-balo”, “kampaniya-kompaniya”, “afzal-abzal” so‘zlari tilshunoslikda qanday nomlanadi?

- A. paronimlar
- B. ko‘chimlar
- C. dubletlar
- D. troplar

9. Adabiy til sofliğa putur yetkazmaydigan unsur qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A. to'g'ri talaffuz qoidalariga amal qilish
- B. dag'al, haqorat so'z va iboralar
- C. shevaga xos so'z va iboralar
- D. jargon va argonlar

10. Sharqda notiqlar qanday nomlangan?

- A. Voizlik
- B. Nuktadorlik
- C. Notiq
- D. Vaz

11. "O'qituvchi nutqi madaniyati" kitobi kim tomonidan yozilgan?

- A. *N.Mahmudov
- B. E. Begmatov
- C. A. Nurmonov
- D. S. Mo'minov

12. 1989 yil 21 oktyabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonun"i necha moddadan iborat?

- A. 24
- B. 32
- C. 74
- D. 82

13. "Qobusnoma" asari qachon yaratilgan?

- A. XI asrda
- B. IX asrda
- C. XIII asrda
- D. XV asrda

14. Qaysi uslubda sinonimlardan nisbatan ko'proq fodalaniladi?

- A. Badiiy
- B. Ilmiy
- C. Publitsistik
- D. Rasmiy

15. "Qobusnoma" asarining muallifi kim?

- A. Kaykovus
- B. Mahmud Koshg'ariy
- C. Abu Nasr Forobiy
- D. Mahmud Zamahshariy

16. "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarining muallifi kim?

- A. Yusuf Xos Hojib
- B. Mahmud Koshg'ariy
- C. Abu Nasr Forobiy
- D. Kaykovus

17. “Mahbub ul-qulub” asari muallifi kim?

- A. Alisher Navoiy
- B. Abu Nasr Forobiy
- C. Mahmud Zamahshariy
- D. Kaykovus

18. Zahiriddin Muhammad Boburning qalamiga mansub asarni belgilang.

- A. “Boburnoma”
- B. “Qobusnoma”
- C. “Mahbub ul-qulub”
- D. “Geodeziya”

19. “Notiq haqida”, “Notiq” “Brut” asarlari muallifi kim?

- A. Sitseron
- B. Aristotel
- C. Abu Nasr Forobiy
- D. Kaykovus

20. “Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir”, ushbu fikrlar muallifi kim?

- A. D.E.Rozental
- B. B.N.Golovin
- C. A.Gurevich
- D. A.I. Yefimov

21. O‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi, turkiy tilda go‘zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida ulug‘lanadigan olim kim?

- A. Rabg‘uziy
- B. Navoiy
- C. Uvasiy
- D. Muqimiy

22. Odam qanday vosita yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi?

- A. Til
- B. Gap
- C. Matn
- D. Nutq

23. Ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqador bo‘lgan nutq turini

belgilang?

- A. Ichki nutq
- B. Tashqi nutq
- C. Passiv nutq
- D. Bunday nutq mavjud emas

24. Tajribali o‘qituvchilar suhbat chog‘ida inson ko‘ngliga qay tarzda yo‘l topishga harakat qiladilar?

- A. Muloyimlik bilan
- B. Qattiqo‘llik bilan
- C. Talabchanlik bilan
- D. Tartib bilan

25. Notiqning ovozida qanday xususiyatlar bo‘lmog‘i lozim?

- A. Keng diapazonlilik, jarangdorlik
- B. Havodorlik, ixchamlik, chidamlilik
- C. Moslashuvchanlik, qarshi to‘lqinlarga nisbatan barqarorlik
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

VI. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi – T.: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
14. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.
15. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
16. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
17. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
18. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
19. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
20. Hakimov M. O‘zbek pragmalingsvistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
21. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.
22. Safarov Sh. Kogitiv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.

IV. Internet saytlar

23. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
24. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
25. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
26. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali Ziyonet
27. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

